

KIMYO FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING O'RNI

Urazmetova Arzigul Rajabovna

Chirchiq shahar 24- umumiy o'rta ta'lim maktabi
oily toifali kimyo fani o'qituvchi

„ Har bir o'qituvchi uning eng birinchi asosiy vazifasi sifatli dars o'tib, yaxshi tarbiya berish ekanligini, darsning muqaddasligini ma'sulyat bilan anglashi lozim”.

Annotasiya

Maqolada o'qituvchining o'quvchi yoshlarga ta'lim-tarbiya berishining murakkab vazifalarini hal etishi ,o'qituvchining e'tiqodi , kasb- mahorati ,san'ati,iste'dodi va madaniyati hamda dasturda belgilangan bilimlarni o'quvchiga yetkazish , mustaqil ravishda ijodiy izlanishlarga yo'naltirish ,o'z fikr qobilyatini rivojlantirib borish ko'nikmalarini o'stirishi ,hamda pedagogikaning turli shakl va usullaridan foydalana olish kerakligi o'z aksini topgan.

Tayanch so'zlar: Pedagogik texnologiya, Insert metodi, FSMU texnologiyasi,DTS ,bilim ,malaka ,ko'nikma.

Mustaqillikka erishgan O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirish hamda huquqiy demokratik davlat qurish uchun ta'lim–tarbiya ustuvorligi ta'minlanibgina qolmay, balki ijtimoiy buyurtma sifatida butun jamiyatni pedagoglashtirish yuzaga keldi. Bu yosh avlodni barkamol inson qilib voyaga yetkazish jarayonini yangi pedagogik tadbirlar bilan ta'minlash zarur deganidir. Pedagogik texnologiyaning mamlakatimiz ta'lim–tarbiya sohasiga to'g'ri joriy qilinishi:

- jamiyatimiz intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishda katta ahamiyat kasb etadi;
- jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi;
- insonni kamolot sari yetaklab, hayotdan o'z o'rnini topish jarayoni tezlashadi;
- fuqarolik jamiyati shakllanishini hamda huquqiy demokratik davlat qurishni ta'minlaydi;



- ijtimoiy–siyosiy iqlimga ijobiy ta’sir etib, mamlakatimizda mavjud ijtimoiy muhit butunlay yaxshi tomonga o’zgaradi.

Pedagogik texnologiya-hozirgi zamondagi didaktika va pedagogika taraqqiyotining mahsuli. Uni pedagogikaning hozirgacha mavjud bo’lgan hamda takomillashib kelayotgan barcha asosiy yo’nalishlari bo’yicha amaliy vazifalarni yanada yuqoriroq darajada amalga oshirish yo’lidagi yangi bosqich deb hisoblash mumkin.

Shu nuqtai nazarlardan pedagogik texnologiyani, avvalo, hozirgi pedagogika fani taraqqiyoti natijasida hosil bo’lgan yangi yo’nalish deb hisoblangan holda, uning o’ziga xos bo’lgan tamoyillari, qoidalarini chuqur o’rganib borish pirovardida qonuniyatlarini aniqlash yo’lidagi muammolarni yechish lozimligi ko’rinib turibdi. Pedagogik texnologiya, avvalo, ta’lim-taribiyani yanada rivojlantirish ehtiyojlarini qondirish yo’lidagi insonlar (pedagoglar, ota-onalar, jamoatchilik) faoliyatidan iborat ijtimoiy hidisa hisoblanishi lozim.

Har qanday ijtimoiy hodisalar kabi pedagogik texnologiyada ham ilmiy jihatdan o’rganuvchi fan sohasi mavjud bo’lib, pedagogik texnologiya fani deb nomlanadi. 80-yillarning boshidan pedagogik texnologiya deb ta’limning kompyuterli va axborot texnologiyalarini yaratishga aytilgan.

Shu aytilganlar asosida pedagogik texnologiya bir jihatdan o’quv jarayonida texnika vositalaridan foydalanishning kengayib borishini ifodalab, uni ta’limdagi, o’qitishdagi texnologiya deb nomlash mumkin bo’lsa, ikkinchidan ta’lim texnologiyasi yoki pedagogik texnologiya degan nom o’quv jarayonining o’zini qurish texnologiyasini bildiradi deb xulosa chiqarish mumkin.

Pedagogik texnologiya bu-o’qituvchi (tarbiyachi)ning o’qitish (tarbiya) vositalari yordamida o’quvchilarga muayyan sharoit va ketma-ketlikda ta’sir ko’rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayonidir (N.Saydahmedov).

Pedagogik texnologiyada pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirishga katta e’tibor beriladi. Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish har bir o’quvchining sifatli ta’lim olishini ta’minlaydi. O’quvchi uchun erkin muhit va o’z fikrini erkin bayon etish imkoniyatlarini yaratadi. Ta’lim-tarbiya sohasida pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish o’zida falsafa, psixologiya va pedagogikaning insonparvarlik g’oyalarini mujassamlashtiradi. Bu



g'oyalarning diqqat markazida mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlarni voyaga yetkazish maqsadi va vazifasi turadi. Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish orqali pedagogik jarayonda hamkorlik, g'amxo'rlikning vujudga kelishi, o'quvchilar shaxsini hurmat qilish va e'zozlash orqali shaxsning tahsil olishi, ijod qilishi va o'z-o'zini rivojlantirishga qulay ijtimoiy-psixologik va do'stona muhit yaratiladi. Mazkur jarayonda o'quvchi o'z o'quv faoliyatining sub'ekti sanaladi va o'qituvchi bilan yagona ta'lim jarayoninig ikkita sub'ekti hamkorlikda o'quv yangilanadi, uning yordamida yoshlarda bilimga chanqoqlik, hurfikrlilik, axloqiylik, milliy g'urur, vatanga muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari shakllanadi.

Hozirgi zamon mutaxassislari faoliyat doirasi qanday bo'lishidan qat'i nazar, axborot texnologiyalari to'g'risidagi keng ko'lamdagi bilim va ko'nikmalar hamda ulardan foydalanish borasidagi malakalarga ega bo'lishi davr talabidir. Jamiyatning tobora informatizasiyalashib borishi uzluksiz ta'lim tizimida ham axborot kommunikatsion texnologiyalardan unumli foydalanish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Kimyo ta'limida AKT (Axborot kommunikatsion texnologiyalar) dan foydalanish

O'qituvchilar yanada samarali o'qitish uchun proektorlar va AKTdan foydalanib, jonli o'quv sinflarini tashkil etishi lozim.

O'qituvchilar yanada samarali o'qitish uchun proektorlar va AKTdan foydalanib, jonli o'quv sinflarini tashkil etishi lozim.

AKTdan foydalanish kundalik hayotimizning dolzarb talabi hisoblanib, jamiyatni globalashtirishda muhim rol o'ynaydi. O'quvchilar yangi tushunchalar haqida rasmiy bilimlarni to'plamasdan, balki ularni tushunib olishlari juda muhim. Biologiya fanini o'qitish yanada samarali bo'lishi uchun o'quv mashg'ulotlari davomida o'qituvchilar AKTni ishlab chiqishlari va undan foydalanishni rag'batlantirishlari zarur.

Biologiya fani o'qituvchilari dars o'qitish uchun samarali AKT yaratishlari uchun Ms Word, Ms Excel, Ms Power Point, Flash, Movie Maker kabi turli dasturiy ta'minotlardan va boshqa "Veb" vositalardan foydalanishlari mumkin.

AKT o'quvchilarni rag'batlantiradi va ularning qiziqishini oshiradi.



Malakatimizda ta'lim tizimida uzoqni ko'zlab olib borilyotgan islohatlar butun nafaqat jamoatchiligimiz tomonidan ,balki butun jahonda e'tirof etilmoqda. Bugun yangicha qiyofa kasb etgan ,zamon talablari darajasida ta'mirlangan ,eng so'ngi rusumdagi o'quv anjomlari bilan jihozlangan maktablar orzu emas ayni haqiqatdir. Malakali mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish jamiyatning ijtimoiy ,iqtisodiy va madaniy jihatdan taraqqiy etishida jiddiy ta'sir ko'rsatadi,chunki malakali mutaxassis ,barkamol avlod mamlakat taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarishning asosiy omilidir .Shu sababli umumta'lim maktablaridagi o'quv – tarbiya jarayoniga qo'yiladigan ijtimoiy talablar ortib bormoqda.Yurtimizning ertangi rivoji uchun qanday chuqur o'ylangan dasturlarni tuzmaylik ,bu rejalarni bajarish uchun har qancha moddiy baza va imkoniyatlarni yaratmaylik ,ularning barchasini amalga oshiradigan ,ro'yobga chiqaradigan qudratli bir o mil bu yuqori malakali mutaxassislar tayyorlanishini va bunday yetuk malakali mutaxassislarda mamlakat taraqqiyoti uchun ma'sulyat hissini tarbiyalash lozimdir.

Yoshlarga ta'lim va tarbiya berishning murakkab vazifalarini hal etish o'qituvchining e'tiqodi, kasb mahoratiga , san'ati, iste'dodi va madaniyatiga hal qiluvchi darajada bog'liqdir. Har bir pedagog shuni doim esda tutishi lozimki, dars o'quv –tarbiya jarayonining fo'rmasi va negizidir.

Hozirgi zamon ta'lim –tarbiyasining barcha jarayonlari o'quvchii mustaqil fikrlashga va mustaqil ijod qilishga o'rgatishdan iboratdir .Biz o'qituvchilar dars jarayonida birinchi navbatda o'quvchilarga fanlardan chuqur va mustahkam bilim berish bilan birga , ularda bilimga qiziqishni , mehnat qilishga ehtiyojini tarbiyalab borishni ko'zda tutishimiz lozim.

Dasturda belgilangan bilimlarni o'quvchiga yetkazish ,ularni faqat puxta bilim olibgina qolmay ,balki mustaqil ravishda ijodiy izlanishga yo'naltirish ,ularda o'z fikriy qobiliyatini rivojlantirib borish ko'nikmalarini ortira olish uchun o'qituvchilar pedagogikaning turli shakillari va usullaridan foydalana olishlari zarur bo'ladi.Kelajak avlod tarbiyasi nozik nihoyatda katta diqqat –e'tiborni talab qiladigan jarayondir . O'qituvchi ta'lim beruvchi sifatida ta'lim oluvchilarning shakillanish jarayonini sinchkovlik bilan kuzatishi darkor.U pedagogig jarayonni boshqarar ekan , pedagogig bilim va mahorat egasi bo'lishi muhim. Pedagogik mahorat tug'ma qobiliyat yoki nasldan –naslga o'tuvchi xususiyat emas, balki



izlansh ,ijodiy mehnat samarasida vujudga keladi.O'qituvchining pedagogik mahorati asosan mashg'ulotlarida yaqqol ko'rinadi.

O'quvchilarning ijodiy izlanishi, mantiqiy fikrlashini rivojlantirish vaqo'shimcha bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda ijodiy o'yinlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchi didaktik o'yinli darslarni o'tkazishda quyidagi didaktik talablarga amal qilishi lozim:

1. Didaktik o'yinli darslar dasturda qayd etilgan ta'limiy , tarbiyaviy , rivojlantiruvchi maqsad va vazifalarni hal qilishga , o'quvchilardagi kasbiy tayyorgarlikni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi.
2. Muhim kasbiy muommalarga bag'ishlanishi va ular o'yin davomida hal qilinishi.
3. Barkamol avlod shaxsini tarbiyalash tamoillariga mos kelishi.
4. O'yin tuzilmasi mantiqiy ketma – ketlikda bo'ishi zarur.


O'yinli darslarda hamma o'quvchilar hamkorlikda ishlaydilar ,avval o'zlashtirgan bilimlarni yangi vaziyatlarda qo'llab,yangi bilimlarni egallaydilar .Bu esa o'quvchilarning o'z bilimlariga, ixtidoriga ishonch uyg;otadi.Natijada har bir o'quvchi sidqidildan va jiddiy tayyorgarlik muvoffaqiyatning garovi ekanligini ahglaydi va yanada ko'proq bilim olishga undaydi.

Ta'lim tizimida kimyo asoslarini o'qitish tegishli kimyoviy tajribalarni tashkil etmasdan turib,takomillasha olmaydi.Kimyoviy tajriba moddalar va kimyoviy reaksiyalar haqidagi bilim manbai – o'quvchilarning bilim olish faoliyatini oshirish va darsga barqaror qiziqishini tarbiyalashda,kimyoviy bilimlarni amalda qo'llash tasavvurlarining shakllanishida muhim shart hisoblanadi.Ba'zi hollarda ,doimo o'quvchilarning diqqat markazidan joy oladigan qiziqarli tajribalarni namoyish etish imkonyatlari bo'lmasliklari kuzatiladi .Lekin mavjud bo'lgan reaktuvlardan foydalanib ham , tajribalarning muqobil variantlarini o'tkazish mumkin . O'qituvchi bundan tashqari kimyo fanida murakkab masalalarni yechishda ,asosan o'quvchilarda qiyinchilik tug'diradigan eritmalar mavzusi bo'yicha masalalar yechishda turli usullardan foydalanish o'quvchilarda bir muncha qiziqish uyg'ota oladi deb o'ylayman.



Bugungi kunda interaktiv metodlar , innovation texnologiyalar , pedagogig va axborat texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan –kunga kuchayib bormoqda . O'qituvchi bu jarayonda o'quvchining shaxsan rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi, tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda , boshqaruvchilik , yo'naltiruvchanlik funksiyasini bajaradi.

Interaktiv metodlar – bu ta'lim mazmunini o'zlashtirilishini ta'minlovchi o'qituvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi o'zaro harakatlar ketma – ketligi tizimi hisoblanadi.Uning asosiy belgilari quyidagilardan iborat.



Oqishitish metodlari o'quv jarayoning asosiy qismi hisoblanib,tegishli metodlarsiz pedagogik faoliyatni amalga oshirib bo'lmaydi.Masalan, pedogogik olim Yu.K. Babanskiy o'qitish jarayoniga yondashish asosida metodlarning uch guruhini ajratadi.

1. O'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari;

Og'zaki ,ko'rgazmali, amaliy,mustaqil ish, va o'qituvchi rahbarligidagi mustaqil ish metodlari.

2. O'quv- bilish faoliyatini motivatsiyalash va stimullash metodlari.

O'rganishga qiziqish uyg'otishni stimullash va motivatsiyalash.

3. O'quv – bilish faoliyatini nazorat qilish va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari.

Og'zaki , yozma , amaliy-laboratoriya metodlari.

Interfaol o'qitish metodlari.

Interfaol o'qitishda o'qituvchi o'quv faoliyatining faol ishtirokchisi bo'lib, o'quvchi bu faoliyatning sub'ekti sifatida namouon boladi. Interfaol usullar o'quvchilardan axborotlarni o'zlashtirish jarayonidagi faollikni, ijodkorlik , mustaqillikni shakllantiribgina qolmay, o'qitish maqsadlarining to'laqonli amalga oshishiga yordam beradi. Bugungi kunda o'qitish tizimidagi ehg samarali interfaol o'qitish metodlari va texnikalariga quyidagilarni kiritish mumkin bo'ladi;

„Sinkveyn” , „Klaster “ , „Aqliy hujum “ „Venn Diagrammasi “ , „Insert “ , „Assesment “ va hakoza. Kimyo fanini o'qitishda „ Insert “ metodi juda qo'l keladi. Mazkur metod o'quvchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o'zlashtirilishini engillashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek , bu metod o'quvchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o'taydi.

Bu metodni amalga oshirish uchun o'qituvchi yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matnni o'quvchilarga tarqatadi, o'quvchilarga individual tarzda matn bilan tanishib chiqib , o'z shaxshiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Metod bilan ishlashda o'quvchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar
„V”- tanish ma'lumot
„ + “ – bu ma'lumot men uchun yangilik.
„ - “ – bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman .
„ ? “ – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak.

Namuna.

N	Mavzular	V	+	--	?
1	Reaksiyalar				
2	Valentliklar				
3	Metallar				
4	Oksidlar				

5	Mendeleev davriy jadvali				
6	Anorganik moddalar				
7	Oksidlar				
8	Tuzlar				
9	Atom massa				
10	Eritma				

Belgilangan vaqt yakunlangach , o'quvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan tahlil qilinib , izohlanadi, ularning mohiyati to'liq yoritiladi.Savollarga javob beriladi va mashg'ulot yakunlanadi.

Yosh avlodga ta'lim –tarbiya berishda bilimli mutaxassislariga ehtiyoj tug'iladi, bu esa o'z navbatida ta'lim-tarbiya jarayoniga nisbatan innovatsion yondashuvni talab qiladi.

O'qitishga innovatsion yondashuv nazariyasining mohiyati o'quv –tarbiya jarayonini jamiyatdagi o'zgarishlarga tayanib , shaxsga yo'nalganlik asosida yangicha asosda tashkil ,etish ,tadbiq etish va tizimli boshqarish tashkil etadi.

O'qitishga innovatsion yondashish malakasining rivojlanishi ta'limni texnologiyalash masalalari bilan bevosita aloqadorlikda o'rganiladi. So'ngi yillarda pedagogik jarayonni texnologiyalash masalalari bilan bevosita aloqadorlikda o'rganiladi. Texnologiya jarayoni o'quv jarayonini tashkil etishni, o'qituvchi faoliyati, o'quv jarayonini tashxis qilishni o'z ichiga oladi.

Pedagogik texnologiyalarning asosiy vazifasi – o'qitish jarayonining maqsadlarini amalga oshirish va shaxsni har tomonlama rivojlanishidir.Bu esa nafaqat ta'lim jarayonining asosiy boshqaruvchisi bo'lgan o'qituvchi shaxsi ,uning boshqaruv mazmuni va harakat yo'nalishlariga ham sezilarli o'zgartirishlar kiritishni talab etadi. Bunday o'zgarishlar o'qituvchidan o'z faoliyatiga nisbatan innovatsion yondashuvni vujudga keltirish bilan belgilanadi.

Kimyo fanida o'quvchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish , taqqoslash , qiyoslash orqali axboratni o'zlashtirish, „xulosalash , shuningdek ,mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda „FSMU” texnologiyasi yaxshi natija beradi.

O'qituvchi innovatsion faoliyatining yana muhim jihatlaridan biri – bu kreativlikdir.Kreativlik- shaxsning yaratuvchanlik , ijodkorlik qobiliyati bilan



bog'lik tushuncha. Kreativ yondashuv – o'qituvchining kasbiy faoliyatini amalga oshirishdagi yaratuvchanligi, ijodkorligi, o'ziga xosligi bilan baholanadi.

Umumta'lim maktablardagi o'quv jarayoni va o'quvchilarning tayyorgarligini shakllantirish o'qitish metodlarini to'g'ri tanlanishi bilan belgilanadi. O'qitish metodlari va texnologiyalarning to'g'ri tanlanishi va rivojlanganlik darajasi, o'qituvchining pedagogik mahorati va kasbiy tayyorgarligi, shuningdek, moddiy-texnik ta'minot va yaratilgan sharoitlar bilan bevosita bog'liqdir.

Shunday qilib, innovatsion o'qitish nafaqat o'qituvchi balki o'quvchilarning ham o'z faoliyatiga yangicha yondashuvi bilan kechgandagina samarali natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Biz bilgan va bilmagmagan kimyo". „Oqituvchi“ nashryoti –manbaa iodiy uy TOSHKEN-2011.
2. Umumta'lim maktablarining o'quv – tarbiya jarayonda innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'rni". „TOSHKENT“ „ABU MATBUOT-KONSALT' 2014.

